

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.B.Nuriddinova	
Linguistic feature of english riddles	129
S.S.Qozaqova	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	139
N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	143
G.Sh.Ergasheva	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
M.A.Abdugodirova	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
M.A.Sayidova	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
A.X.Шукурова	
Таҳлили қиёси вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллий дар ғўишҳои тоҷикони Сариосиё ва Самарқанд	163
M.N.Xamdamova	
Yangi O'zbekiston qonunchiligida til masalasi va yurislingvistika.....	172
K.T.Sindorov	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari	176
X.C.Шукурова	
Таҳлили баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ	180
Г.Р.Ташматова	
Стратегии интеграции обучения языку и предметному содержанию в развитии профессиональной коммуникативной компетенции	187
N.K.Abbasova, M.I.Abdualiyeva	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis.....	193
N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies	197
I.I.Po'latova	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi	205
O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
K.A.Abdurashidova	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и английской традициях.....	213
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
D.Y.Kambarova	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era	222
G.T.Khaitova	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili	229
M.O.Batirkhanova	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
J.A.Egamnazarov	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
K.T.Israilova	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi	242
M.M.Botirova, Z.G.Qodirova	
Ta'limiy korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
F.K.Aminov	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital identity and engagement strategies	250
Z.M.Sobirova	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



UO'K: 349.9:81'272

YANGI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA TIL MASALASI VA YURISLINGVISTIKA ЯЗЫКОВОЙ ВОПРОС И ЮРИЛИНГВИСТИКА В НОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА

LANGUAGE ISSUE AND JURISLINGUISTICS IN NEW UZBEKISTAN LEGISLATION

Xamdamova Muyassarxon Nematovna 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat tilini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ahamiyati, tilimizga bo'lgan hurmatning shakllanishi va mustakamlanishida qonun hujjatlarining o'rni xususida so'z boradi. Shuningdek, yurislingvistika bo'yicha o'z izlanishlarini olib borayotgan tadqiqotchilar, ularning qarashlari, ilmiy, nazariy va amaliy xulosalari tilga olinadi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida yurislingvistikaning o'rni qay darajada muhimligi ko'rsatiladi.

Аннотация

В статье говорится о значении принятых правовых документов по развитию государственного языка в Республике Узбекистан, роли правовых документов в формировании и укреплении уважения к нашему языку. Также упоминаются исследователи, проводящие исследования в области юридической лингвистики, их взгляды, научные, теоретические и практические выводы. Также показано значение юридической лингвистики в узбекском языкознании.

Abstract

The article talks about the importance of the legal documents adopted on the development of the state language in the Republic of Uzbekistan, the role of legal documents in the formation and strengthening of respect for our language. Also, the researchers conducting their research on legal linguistics, their views, scientific, theoretical and practical conclusions are mentioned. It also shows the importance of legal linguistics in Uzbek linguistics.

Tayanch so'zlar: davlat tili, zamonaviy tilshunoslik, yuridik til, milliy qonunchilik, yurislingvistika, lingvistik ekspertiza, yuridik termin, fanlararo uyg'unlik

Ключевые слова: государственный язык, современное языкознание, юридический язык, национальное законодательство, юридическая лингвистика, лингвистическая экспертиза, юридический термин, междисциплинарная гармония

Key words: state language, modern linguistics, legal language, national legislation, legal linguistics, linguistic expertise, legal term, interdisciplinary harmony.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslik bugun tilning turli sohalar bilan aloqadorligini kengroq shaklda o'rganishga kirishgan. Buning natijasida olib borilgan tadqiqotlar sabab o'zbek tilshunosligida yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi va o'quv jarayonlariga tatbiq etildi. Masalan, sotsiologiya va tilshunoslikning aloqadorligi sotsiolingvistikada, inson ruhiyati, ya'ni psixologiyasi bilan tilshunoslikning aloqadorligi psixolingvistikada, madaniyat va tilshunoslikning kesishgan nuqtasi lingvokulturologiyada o'rganilmoqda. Bundan tashqari, ayni qolip asosida ilmga neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, etnolingvistika, paralingvistika, lingvogeografiya kabi qator yo'nalishlar kirib keldi. Ular orasiga yana bir tilshunoslik yo'nalishini qo'shish mumkinki – bu yurislingvistika. Yurislingvistika esa yuridik soha va tilshunoslikning aloqadorligini o'rganuvchi yo'nalishdir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasidagi barcha normativ-huquqiy hujjatlar davlat tilida tayyorlanadi va qabul qilinadi. Bu haqida, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida qat'iy belgilab qo'yilgan. Ya'ni "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir"[1]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni 7-moddasida davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etilishi, davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlashi, shu

TILSHUNOSLIK

jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlashi qayd qilingan. Ushbu Qonunning 8-moddasida esa: "O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon qilinadi" [2], deb ko'rsatilgan.

Filologiya fanlari doktori, professor Shuhrat Ko'chimov shunday deydi: "...har bir xalqning o'z tarixiy taraqqiyotidagi eng noyob va mukammal boyligi, san'ati bu uning tilidir. Har jihatdan taraqqiy etgan tilda shu xalqning butun Vatani g'aydalanadi. Shu sababdan til - xalqning taqdiri, ruhiyati, yashash tarzi hisoblanadi. Shuning uchun har bir xalq o'z ona tilining taraqqiy etishi uchun g'amxo'rlik qiladi, o'z tilining rivojlanish asoslarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga intiladi"[13,13]. Chindan ham shunday. Bugun O'zbekiston o'zining asrlar davomida sayqal topgan va takomillashgan milliy tili – o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi, uning mavqeini yanada yuksaltirish yo'lida 20 dan ortiq qonun hujjatlarini maydonga chiqarmoqda va ularning o'z navbatida ijrosi ta'minlanyapti ham.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[4] hamda "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[5] farmonlar ham davlat tilida ish yuritish va tilimizga bo'lgan hurmatni oshirish haqidagi huquqiy norma va talablarning nechog'lik ahamiyatli ekanligini ko'rsatib turibdi.

Davlat tilining nufuzini oshirish xususida so'z borganda, prezident tomonidan imzolangan farmon bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi[3] va unda belgilangan vazifalar doirasida normativ-huquqiy hujjatlarni davlat tilida tayyorlash va qabul qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlash o'rinli. Xususan, "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"ning tasdiqlangani ham o'zbek tilshunosligi va huquqshunosligi uchun muhim voqelik bo'lganini qayd etish zarur. Unga ko'ra, mamlakatda 2025-yilga qadar barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'g'ri va to'liq foydalanish, tilimizni boyitib borish, qay bir sohada faoliyat olib bormasin, xodimlarning va mutaxassislarning nutq madaniyatini rivojlantirish, davlat tilida ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish kabi vazifalar qat'iy belgilab qo'yilgan.

Qolaversa, 2019-yil 12-dekabrda Hukumat qarori bilan tasdiqlangan Nizom[6] asosida davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoring olib borish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish bo'yicha yagona tuzilma shakllantirildi. Uning zimmasiga, shuningdek, davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish, uni rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosati olib borilishi yuzasidan takliflar tayyorlash, davlat tilini rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, dasturlar va yo'l xaritalarini ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarining o'zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo'llanilishini ta'minlash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish, davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish kabi qator vazifalar ilgari surilgan.

Nizomda belgilangan vazifalarning dastlabki samarasi sifatida 2020-yilda "Davlat tilida ish yuritish" kitobi[8] nashr etildi. To'g'ri, avvalroq ham ushbu nomdagi qo'llanma nashr etilgandi, lekin mazkur nashr qo'llanmaning to'qqizinchi marta to'ldirilgan va takomillashtirilgan shakli hisoblanadi. Chunki dastlabki nashri 1990-yilda chiqqan bu qo'llanmani yangilash, mukammal holatga keltirish zarurati XXI asrning ikkinchi o'nyilligida yanada ochiq-oydin ko'zga tashlandi. Ushbu qo'llanmada tashkilot va muassasalarning ish yuritish faoliyatida eng ko'p qo'llaniladigan hujjatlar, ularni tuzish tartib-qoidalariga e'tibor qaratilgan. Tegishli tartibda namunalar berilib, maxsus lug'at keltirilgan. Ya'ni qo'llanmaning yangi nashri davlat tilida ish yuritish jarayonida muammolari bor xodimlar uchun ayni muddaodir. Shu bilan birgalikda, tilimiz nufuzini oshirish va unga bo'lgan hurmatni mustahkamlashda ham o'ta foydali.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi qarori[7] bilan esa "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlanib, unga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat loyiha matnining davlat tili qoida va talablariga muvofiqligi mutaxassis tomonidan o'rganilish tartibi belgilab qo'yilgan. Ya'ni Nizomning 3-bobida normativ-huquqiy hujjat loyihasini lingvistik ekspertizadan o'tkazish talablari keltirilgan bo'lib, unga muvofiq, jumalarning soddaligi va qisqaligi, ta'riflarning aniqligi, imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mosligi, yangi atamalar, shuningdek, soha atamalarining to'g'ri qo'llanganligi, so'z birikmalarining o'zaro to'g'ri bog'langanligi, bayonning tizimliliigi va ifoda ketma-ketligi ekspertizadan o'tkazilishi belgilangan. Bundan tashqari, lingvistik ekspertizadan o'tkazayotgan mutaxassis qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lingvistik ekspertizadan o'tkazadigan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari predmetiga taalluqli bo'lgan hujjatlar bilan tanishishi ko'rsatib o'tilgan. Xususan, lingvistik ekspertiza o'tkazish jarayonida "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "O'zbek tilining imlo qoidalar", O'zbek tilining izohli va imlo lug'atlari, soha va tarmoq lug'atlari, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Geografik obyektlarning nomlari davlat reyestri ma'lumotlari, davlat tilida ish yuritishga oid adabiyot va uslubiy qo'llanmalar va o'zbek adabiy tilining boshqa ilmiy-uslubiy manbalaridan foydalanilishi belgilangan[7].

Bu degani lingvistik ekspertiza jarayoni faqat tilshunoslik bo'yichagina bilimga ega bo'lgan emas, ayni paytda yuridik soha bilan ham tanish bo'lgan mutaxassis zarurligini ochiqlab turibdi. Ayni boradagi kemtiklikni esa yurislingvistika to'ldiradi.

O'zbekistonda yurislingvistika bo'yicha tadqiqotlarga o'tgan asr boshlaridan kirishilgan. Xususan, ma'rifatparvar olim G'ozi Yunus, F.Bakirov[10], F.Muhitdinov, K.Mirzajonov[14], G'.Ahmedov, A.Saidov, U.Bozorov[9,16], H.Bektemirov, H.Xolmedov, S.Sodiqov, G'.Sotimov, U.Tadjixanov, G'.A.Abdumajidov, A.M.Kurganov, D.S.Djuzbayeva[12] singari tadqiqotchilar yuridik atamalar yuzasidan qator lug'atlar yaratganlar. Bugungi kunda yuridik terminlar va ularning tarixi, iste'moldagi holati, me'yorlari va tahlili, umuman olganda, yurislingvistika ustida professor Sh.Ko'chimov[13] atroflicha tadqiqot olib bormoqda. Bundan tashqari, M.Baratov, M.Kasimova[11], O.F.Tursunova[14], R.Sharopova[15], E.Sabirova[13], G.G'ulomova, R.Ikramov, Q.Mo'yidinov kabi ko'plab izlanuvchilar ham o'zbek yuridik terminlari va yurislingvistika bo'yicha tadqiqotlarga hissa qo'shib kelmoqdalar. Lekin bu milliy til taraqqiyoti va takomillashuvi yo'lida hali juda kam.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mukammal qonun hujjatini ishlab chiqishdagi kemtikliklarimiz o'zbek tilini puxta bilgan, tilshunoslik qoidalariga qat'iy amal qiladigan va yuridik terminlarni to'g'ri, o'z o'rnida qo'llash bo'yicha bilimga ega mutaxassisni talab etmoqda. Ushbu nuqtayi nazardan qaraganda, o'zbek tilshunosligiga yurislingvistika yo'nalishini olib kirilishning nechog'lik muhimligi ayonlashadi. Mazkur mavzudagi tadqiqotlar, tabiiyki, huquqshunoslar va tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan. Lekin bunda ham qator nomuvofiqliklar yuzaga kelishi mumkin.

Shuhrat Ko'chimov fikriga ko'ra, *"Yurist huquqiy normani qog'ozga tushirib yozar ekan, xohlaydimi-yo'qmi lingvistik bilimlarga ehtiyoj sezadi. Tilshunos esa yuridik terminlardan, ma'lum bir huquqiy bilimlardan xabardor bo'lmay turib, bu sohani o'rgana olmaydi. O'rganishi ham mumkin, faqat uning tadqiqotlari lingvistik doirada, ya'ni tilning ayrim leksikgrammatik qonun-qoidalarini "kashf etish" uchun qaratiladi[13,96]."*

Albatta, huquqshunos tadqiqotchilar ekspertizadan o'tkazilayotgan matnda yuridik texnikaga amal qilinishi bilan ko'proq qiziqadi, tilshunoslar esa qonun hujjatlari matnida adabiy til me'yorlariga qay darajada amal qilinganligi, belgilangan til uslublariga rioya etilganligiga asosiy e'tiborni qaratadilar.

Yangi O'zbekiston o'zining milliy qonunchiligini yanada takomillashtirish yo'lida ekan, sohaga yangicha nafas olib kiradigan, bir necha tarmoqlar bo'yicha bilimga ega kadrlarga ehtiyoj seziladi. Ya'ni u yoki bu yo'nalishning uyg'unlashgan shaklini ko'ra oladigan, integratsiya jarayonidagi zanjirlarni bir-biriga tizimli bog'laydigan mutaxassislarga zarurat ortib boraveradi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikning yangi marvaridlarini, tilsimlarini topadigan, iste'moldagi milliy til elementlari hajmini salmoqli ravishda oshirishga hissa qo'shadigan tadqiqotlar ilm maydoni vakillari tomonidan chanqoqlik bilan qarshi olinadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligi taraqqiyotida, qonun hujjatlarini milliy til elementlari bilan boyitishda yurislingvistika yo'nalishi muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzuda hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar, ilmiy tadqiqotlar oldinda. Chunki shu kunga qadar yurislingvistika yo'nalishida amalga oshirilgan izlanishlar yo tilshunoslar yoki huquqshunoslar tomonidangina olib borilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlarda har bir izlanuvchi o'z ixtisosligidan kelib chiqqan holda aksariyat hollarda mavzuga biryozlama yondashgan. Ya'ni tilshunos o'z nuqtayi nazaridan, huquqshunos esa o'z qarashlari bilan mavzu mohiyatini ochiqlashga kirishgan. Lekin ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarning ham tilshunoslik, ham yuridik soha bo'yicha bilimga ega bo'lgan tadqiqotchilar tomonidan olib borilishi har ikki yo'nalish o'rtasidagi oraliq muvozanatni ta'minlashda, saqlashda muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси//Lex.uz
2. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақида" Қонуни. 1995 йил 21 декабрь //Lex.uz
3. "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони. ПФ-4947-сон. 2017 йил 7 февраль. Lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni//Lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"farmoni//Lex.uz
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори "Давлат тилини ривожлантириш департаменти тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида" 2019 йил 12 декабрь 984-сон. Lex.uz
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. Норматив ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини лингвистик экспертизадан ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида. Lex.uz
8. Аминов М. ва бошқалар Давлат тилида иш юритиш "Ўзбекистон", Тошкент 2020.
9. Аҳмедов Ғ, Саидов А, Бозоров У ва бошқалар. Юридик атама ва иборалар луғати. Тошкент. "Адолат" 1993: - 144 б.
10. Бакиров Ф. Юридик терминлар луғати. -Тошкент, 1959
11. Касимова М. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка. <http://yurislingvistika.ukit.me/services>
12. Курганов А., Джузбаева Д. Ўзбекча-русча-инглизча юридик атамалар луғати. Тошкент – 2020. 200 бет
13. Кўчимов Ш. Юридик тил назарияси ва амалиёти. - Т., 2013. – 51 б.
14. Мухиддинов Ф., Мирзажонов К. Юридик луғат. Тошкент "Ўқитувчи" 1983 й.
15. Сабирова Э. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида ҳуқуқий терминларнинг берилиши. <http://yurislingvistika.ukit.me/services>
16. Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T.: Adolat, 1994
17. Турсунова О. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланилган ҳуқуқий терминларнинг лисоний тадқиқи" <http://yurislingvistika.ukit.me/services>
18. Шаропова Р. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик таққини. <http://yurislingvistika.ukit.me/services>